

Galdagi ochiq dars

“Elektrotexnik materiallari” fanidan dotsent v.b. R.F.Yunusovning “Klassifikatsiya i osnovnyye svoystva provodnikovыx materialov” mavzusidagi “Qishloq va suv xo’jaligi energiya ta’minoti” fakulteti “Qishloq xo’jaligini elektrlashtirish va avtomatlashtirish” ta’lim yo’nalishi 2 - kurs 203 - guruh talabalariga rus tilida ochiq dars o’tkazildi. Ma’ruzada o’tkazgichlarning ta’rifi, bajarilish materiallari, turlari, xususiyatlari, tasniflanishi, elektr energetika va agrosanoat majmui sohalarida qo’llanilish ko’rinishlari, afzalliklari va kamchiliklari va boshqa qo’shimcha ma’lumotlar keltirildi, tushuntirildi va tahlil qilindi. Elektr o’tkazgichlarni tanlashda ularning ko’rsatkichlarini hisoblash uchun kerakli formulalari keltirildi. Elektr uskuna va vositalarda (motor, transformator, ishga tushirish, himoyalash vositalar, turli apparatlar)ning qismlarida o’tkazgichlarning qo’llanilishi slayd va videofilmlarda ko’rsatildi. Elektr o’tkazgichlarni ishlab chiqarish korxonalar va texnologiyalari haqida ma’lumot va tushunchalar berildi. Mazkur tadbirda “Qishloq va suv xo’jaligi energiya ta’minoti” fakulteti professor-o’qituvchilari ishtirok etishdi.



**“Qishloq va suv xo’jaligi energiya ta’minoti” fakulteti Ma’naviyat-ma’rifat ishlari bo’yicha
dekan muovini Sh.O.Berdiyev axboroti**

Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov